



NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 13-yanvar

6-5-71-Q/26

Karmana tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-388-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-388-sonli va viloyat hokimining 2025-yil 30-dekabrda 326-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2026-yilgi tuman mahalliy budjetidan budjet tashkilotlari va mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-388-sonli qarori bilan quyidagi soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida quyidagi miqdorlarda qoldirilganligi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'liq hajmda;
foyda solig'i to'liq hajmda (mazkur qarorga 4-ildavda ko'rsatilgan yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'i bundan mustasno);

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasida daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 100 foizi, qolgan hududlarda esa 60 foizi (mazkur qarorga 4-ildavda ko'rsatilgan yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno). Bunda soliq turlari bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini hisoblashda yirik soliq to'lovchilardan tushumlar (mazkur qarorga 4-ildavda ko'rsatilgan yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan foyda va qo'shilgan qiymat soliqlari bundan mustasno) hududlar kesimida qoldirilganligi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (**Sh.Zayniyev**) birinchi darajali budjet mablag'lari taqsimlovchilari budjet mablag'larini tejash va samaradorligini oshirish bo'yicha barcha zaruriy choralarni ko'rsin.

Bunda:

O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjeti taqchilligi cheklangan miqdorining oshib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan qo'shimcha xarajatlar faqat qo'shimcha daromad manbai mavjud bo'lganda yoki boshqa xarajatlarni qisqartirish hisobiga amalga oshirilishi;

budjet tashkilotlarining 2026-yil uchun xarajatlar smetasini tuzish jarayonida mebel va ofis jihozlari hamda tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilish xarajatlari miqdorini 2025-yilgi miqdorlarda saqlab qolgan holda (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim muassasalari, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari, Ijtimoiy himoya milliy agentligining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari, muruvvat uylari, sanatoriylar, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlari, ayollarni reabilitatsiya qilish markazi, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, bolalar uylari, mehribonlik uylari, "SOS -O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi va kasb-hunar maktablari hamda sog'liqni saqlash muassasalaridan tashqari) rejalashtirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi (**G.Shermatova**)ga tegishincha tuman budjetining zaxira jamg'armalarini 2025-yildagi hajmlardan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirish, bunda tuman budjetlari uchun zarur bo'ladigan qo'shimcha mablag'larni tegishli yuqori turuvchi budjetlarning zaxira jamg'armalari mablag'larini kamaytirish hisobiga rejalashtirish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari **Sh.Zayniyev** zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Sh.Boltayev

Karmana tumani hokimining
2026-yil 13-yanvardagi
6-5-71-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Karmana tuman budjetidan birinchi darajali budjet
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan
miqdorlari**

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori (ming so'mda)
	Xarajatlar miqdori, Jami	119 086 760,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	119 086 760,0
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	23 910 664,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	23 910 664,0
	Umumiy ta'lim	8 966 159,0
	Maktabgacha ta'lim	12 905 105,0
	"Mening maktabim"	2 039 400,0
2	Tuman madaniyat bo'limi	4 997 501,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 997 501,0
3	Tuman Yoshlar ishlari agentligi bo'limi	5 212 657,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 212 657,0
4	Tuman sport bo'limi	8 216 070,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 216 070,0
5	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 944 859,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 944 859,0

6	Tuman qishloq xo‘jalik bo‘limi	4 182 229,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 182 229,0
	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	3 796 335,0
	Tuman fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	385 894,0
7	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 295 974,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 295 974,0
8	Tuman hokimligi	36 134 810,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	36 134 810,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	6 508 726,0
	Tuman mahallabay ishlash tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	4 811 928,0
	Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining tuman bo‘limi	2 271 791,0
	Hokimliklarning zaxira jamg‘armalari	1 589 797,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	19 362 568,0
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 590 000,0
9	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	28 538 855,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	28 538 855,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	24 138 855,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlariga	4 400 000,0
10	Tuman suv yetkazib berish xizmati DM	2 475 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 475 000,0
11	Tuman Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo‘limi	151 448,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	151 448,0

12	Tuman hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 026 693,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 026 693,0
	Tuman xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	147 203,0
	Tuman Axborot-kutubxona markazlari	879 490,0

Karmana tumani hokimining
2026-yil 13-yanvardagi
6-5-71-Q/26-son qaroriga
2-ilova

**Karmana tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari**

T/R	Daromad turlari	Jami (ming so'mda)
Daromad jami		119 086 760,0
1	Aylanmadan soliq	13 741 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4 592 676,0
3	Qo'shilgan qiymat solig'i	3 522 384,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 592 000,0
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 760 000,0
6	Yuridik shaxslar yer solig'i	26 114 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	18 795 000,0
8	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	17 683 700,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 320 000,0
10	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	582 000,0
11	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 384 000,0

Karmana tumani hokimining
2026-yil 13-yanvardagi
6-5-71-Q/26-son qaroriga
3-ilova

**Karmana tuman budgetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budget
mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

T/R	Hududlar nomi	Miqdor (ming so'mda)
1	Karmana tuman	1 128 369,0